

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI FANLARGA QIZIQTIRISHDA TA'LIMIY
METODLARNING AHAMIYATI**

Ergasheva Mohinur Kamol qizi

*Andijon davlat pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim
yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining fanlarga qiziqtirishda turli ta'limiy, didaktik hamda o'yinli metod va usublarning ahamiyati haqida mulohazalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Boshlang'ich sinf, metod, ta'lim, o'qituvchi, didaktik metod, uslub, bilim, darslar.*

Boshlang'ich ta'lim-kelajak poydevori. Zero, poydevor mustahkam bo'lmas ekan, keyingi bosqich ham sifatli bo'lmaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari maktabga ilk kelgan kunlaridanoq ko'zlari chaqnab bilim olishga tashna holatda bo'ladilar. Mana shu beg'ubor ko'zlardagi qiziqish, fanlarni o'zlashtirishga bo'lgan intilishni so'ndirib qo'ymaslik kerak. Albatta, bunda o'qituvchining va o'qituvchi qo'llaydigan metodlarning ahamiyati katta. Negaki, boshlang'ich sinf o'quvchisi ko'p narsani taqlid qilish orqali o'rganadi. O'qituvchining birinchi o'quv yilida sinf taxtasi yoki o'quvchi daftoriga yozganlari asl nusxa sifatida ko'riladi, chunki o'quvchilar undan o'z daftarlarga ko'chirib oladilar. Shuning uchun o'qituvchining husnixati to'g'ri va chiroyli bo'lishi lozim. Sinf taxtasiga yozilgan yozuvi esa o'quvchining daftariidagi harflarning joylashishiga mos holda bo'lishi kerak. Amaliyotning ko'rsatishicha, agar o'qituvchi qatorning oxirigacha yozmasa, bolalar ham undan namuna olib qatorning oxirigacha yozishmaydi, qog'ozni bekorga sarf etishadi va so'zlarni keying qatorga to'g'ri ko'chirish yo'llarini o'rgana olmaydilar. Shubhali holatda qatorni oxirigacha ko'chirmaydigan bo'lishadi. Shunday holatlarni oldini olish, o'quvchilarni fanlarga yo'naltirish orqali ta'lim sifatini oshirishga erishishimiz mumkin

Malakali o'qituvchi har bir darsida o'quvchilarni o'ziga jalb qilish, darsni yengil usulda o'quvchilarga tushunarli tilda o'rgatishda, albatta, ta'limiy metodlardan foydalanadi.

Metod aslida yunoncha "metodos" so'zidan olingan bo'lib, "bilish va tadqiqot yo'li", "nazariya", "ta'limot" kabi ma'nolarni bildiradi. Ana shu metodlarning ham turlicha ko'rinishlari bor. Ya'ni, o'qituvchi yangi mavzuga

olib kirish uchun mavzu boshlanmasidan oldin bitta metod bilan darsni boshlashi lozim.

Ta'lim metodlari deyilganda, o'rganilayotgan materialni egallashga qaratilgan turli didaktik vazifalarni hal etish bo'yicha o'qituvchining o'rgatuvchi ishi va o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish usullari yig'indisi tushuniladi.

Ta'lim usuli-ta'lim metodining tarkibiy qismi. Metodlar bilan usullar o'zaro bir-biriga bog'langan. Usul va metod butun va qism sifatida bir-biriga bog'lanadi. Usullar yordamida faqat pedagogik yoki o'quv vazifasining bir qismi hal qilinadi. Misol qilib aytganda, o'qituvchilar tomonidan ko'p qo'llaniladigan mashq manbasiga ko'ra amaliy metod hisoblansa, uni qo'llash esa bir necha usullar yordamida amalga oshiriladi:

1-usul: Mashqning qoidasini o'qib berish;

2-usul: Bittasini namuna sifatida bajarib ko'rsatish;

3-usul: O'qituvchining namunasi asosida o'quvchilar tomonidan mashqning bajarilishi;

4-usul: O'quvchilar tomonidan bajarilgan mashqlarni tekshirish va xatolarini tekshirish.¹

Bajaradigan vazifasiga tegishli belgilariga ko'ra ta'lim metodlarini quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Nazariy bilim berish metodlari.

2. Amaliy ko'nikma va malakalarni o'rgatish metodlari.

3. Amaliy mashqlar bajarishni o'rgatish metodlari.

4. Bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishni nazorat qilish metodlari.

O'zlashtirishni nazorat qilishga tegishli belgilariga ko'ra ta'lim metodlarini quyidagi turlarga ajratish mumkin:

a) Yozma ishlar bajarish: diktant, bayon, insho va boshqalar;

b) Nazorat ishlarini bajarish;

c) Mashqlar bajarish;

d) O'g'zaki savol-javoblar.²

Albatta, ushbu ta'limiy metodlar o'qituvchining mahoratini hamda o'quvchilarning o'zlashtirishini ko'rsatib beradi. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda ko'p hollarda bolalarning fikri tarqoq bo'ladi va shunday paytda o'qituvchi turli metodlardan foydalanib o'quvchini o'ziga jalb qilishi zarur. Shunday holat uchun namuna sifatida "Diqqat" metodini olish mumkin.

¹ "Ta'lim metodlari va vositalari" TDPU. "Umumiy pedagogika" kafedrasida katta o'qituvchisi Mirsagatova Nargiza Sayfullayevna. Toshkent-2019.

² "Hozirgi ta'lim metodlarining asosiy turlari" Shuhratbek.uz/hozirgi -ta'lim-metodlarining -turlari.

O'qituvchi bir deyishi bilan o'quvchilar bitta qarsak, ikki desa ikkita, uch desa uch marta qarsak chaladi. Natijada, ushbu metod orqali diqqatni jamlash mumkin. Yangi mavzu bayoni, mavzuni mustahkamlash uchun ham turli metodlarni qo'llash mumkin. Mustahkamlash va takrorlash darslari uchun "Aqliy hujum", "Besh isbot", "Qora oyna" kabi metodlarni nafaqat yuqori sinf balki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining barcha fanlarida qo'llash o'rinli hisoblanadi. Jumladan, "Qora oyna" metodini fanlarda qo'llash orqali ham o'tilgan mavzuni takrorlash va mustahkamlash hamda o'quvchilar tasavvur qilish qobiliyatini o'stirishga erishiladi.

O'qituvchi sinf taxtasiga katta oyna chizadi va bolalarga bu oynani qora oyna deb tasavvur qilishlarini, bu oynaning orqasida biz uchun juda ko'p qiziqarli ma'lumotlar borligini tushuntiradi. O'qituvchi: Bu oynani ochish uchun biz unga har birimiz tosh otib sindirishimiz kerak. Buning uchun biz o'tgan darsdagi ma'lumotlardan foydalanamiz. Bunda har birimiz o'tgan darsimizdagi mavzudan bittadan ma'lumot yozib shu oynani to'ldiramiz. Qachonki, oyna ma'lumotlar bilan to'lsagina, biz uni sindirgan bo'lamiz va o'tgan darsni qanchalik darajada o'zlashtirganimiz ma'lum bo'ladi. O'qituvchi shartni bolalarga tushuntirib, o'tgan mavzuni takrorlab olishlarini tayinlaydi.

Bu metodning maqsadi bolalarni o'tgan mavzuni qanchalik o'zlashtirganini aniqlash va sinfdagi o'quvchilarni oz vaqt oralig'ida baholashga erishishdir. Bunday metodlarni interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham atashadi. Interfaol metodlar deganda o'quvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. O'quvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun "ona tili va o'qish savodxonligi" darslarida qo'llasa bo'ladigan "Harflarni shunday o'zgartirinki, so'z hosil bo'lsin" ta'limiy o'yini:

Bolalarga so'zlar beriladi. O'quvchilarga so'zdagi biror harfni o'zgartirish orqali boshqa so'z hosil qilishlari kerakligi tushuntiriladi. Kim ko'p so'z tuza olsa, ana o'sha o'quvchi g'olib sanaladi.

Masalan: Tuz-tus, lola-tola-nola-bola-xola, bor-bosh-bos kabi.

"O'zaro bog'liqlik" ta'limiy metodi

O'quvchilarga rasmi kartochkalar tarqatiladi. Ular kartochkalar bilan tanishib chiqqach, o'quvchi rasmdagi predmet haqida gapirib beradi. Masalan: "Bu olma. Olma bog'da o'sadi va mevalarga kiradi. Uni bolalar juda yaxshi ko'radi". Keyin ikkinchi bola ham o'zidagi predmet

haqida gapiradi va o'zidagi predmet bilan birinchi o'quvchidagi predmetni o'zaro bog'liqligini aytishi kerak.

“Bu quyosh.Quyosh chiqsa,havo isiydi.Quyosh isitib tursa,olma va boshqa mevalar pishadi”.Shu tarzda boshqa o'quvchilar ham o'yinni davom ettiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini darslarga qiziqtirish hamda olgan bilimlarini mustahkamlashda ana shunday ta'limiy va interfaol metodlarni o'rnida to'g'ri qo'llay bilish orqali o'quvchilarda yuqori natijalarni ko'rish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Husnixat o'qitish metodikasi”.ADPI.Jo'rayeva N.G'. O'quv uslubiy majmua-Andijon-2022.
2. Ta'lim metodlari va vositalari” TDPU. “Umumiy pedagogika” kafedrası katta o'qituvchisi Mirsagatova Nargiza Sayfullayevna.Toshkent-2019.
3. “Hozirgi ta'lim metodlarining asosiy turlari”Shuhratbek.uz/hozirgi – ta'lim-metodlarining –turlari
4. Dadamirzayev G'.pedagogik texnologiyalar bo'yicha izohli tayanch so'z va iboralar.Metodik qo'llanma.-Namangan,NamMPI,2008.